

O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMI YANA O'ZGARADIMI

Mamadjanova Zarnigor Ismoilzoda

Farg'ona viloyati Yuridik Texnikumi

2-bosqich 16-21 guruh talabasi

Rishton tumani Adliya Bo'limi Amaliyotchisi

Annotatsiya: *MMTV yuqori sinflarda fanlar soni qisqarishi, boshlang'ich sinflar uchun informatika fani kiritilishi va maktablar boshqaruvida kutilayotgan o'zgarishlar haqida xabar berdi. "Gazeta.uz" kolumnisti Komil Jalilovning yozishicha, ta'limdagi har qanday yangilik chuqur va ilmiy asoslangan tahlillarga tayanishi lozim.*

Mamlakatimiz ta'lim tizimini yana o'zgarishlar kutayotgan ko'rinadi. Bir necha yil avval O'zbekistonda "9+3" (12 yillik majburiy ta'lim) tizimi bekor qilingan, shundan keyin Milliy o'quv dasturiga o'tilishi aytilgan va 2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur qabul qilingan edi.

O'tgan yili "fin tajribasi"ni joriy etish xususida ko'p gapirildi, yil yakunida esa, "ma'muriy islohotlar" deya taqdim qilingan jarayonlar doirasida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Prezident ta'lim muassasalari agentligi bitta davlat organiga birlashtirildi. Kuni kecha maktabgacha va maktab ta'limi vaziri Xilola Umarova davlat rahbari bilan uchrashuvda tizimda kutilayotgan bir qator yangiliklarni taqdim etdi. Ushbu o'zgarishlarning ayrimlari, mening nazarimda, batafsilroq ko'rib chiqilishi lozim.

O'quv rejasidagi o'zgarishlar: yuqori sinflar

Prezident matbuot xizmati xabariga ko'ra, yuqori sinflarda fanlar soni 16 tadan 11 taga qisqartiriladi, 11 ta majburiy va 2 ta tanlov fanlar joriy etilgan holda "dasturlarning fanlararo va sinflararo integratsiyasi ta'minlanadi". 10–11-sinflarda "o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatiga mos bo'lgan ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish" amaliyotini joriy etish 2023-yilga mo'ljallangan Davlat dasturida ham nazarda tutilgan. Amalda bu qanday bo'ladi?

Vazirlik buyrug'i loyahasiga (muallifga taqdim etilgan) ko'ra, 2023–24 o'quv yilidan boshlab har bir hududda sinov maktablari tanlab olinadi hamda ularda quyidagi majburiy va tanlov fanlardan iborat dastur amalga tadbiq etiladi:

- majburiy fanlar — ona tili va adabiyoti, ingliz tili (buyruq loyahasida "chet tili" emas, aynan "ingliz tili" deb ko'rsatilgan), tarix, tarbiya, matematika, informatika, jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik. Ushbu fanlar uchun 20–21 o'quv soati ajratilgan;

- tanlov fanlar — matematika va fizika, kimyo va biologiya, ona tili va chet tili, matematika va chet tili. Bu ikki fanga 10–11 o'quv soati ajratiladi.

Maxsus komissiya o'quvchilar orasida so'rov o'tkazib, sinfda yuqoridagi to'rt juft tanlov fanlaridan qaysi biri o'qitilishini aniqlaydi. Bitta fan ham majburiy, ham tanlov fanlar blokida fanlar takroran kelgan bo'lsa (ona tili, matematika, chet tili), har ikki blokda ushbu fanlarga ajratilgan soatlar qo'shiladi. Masalan, "kimyo-biologiya" yo'nalishidagi sinfda matematika haftasiga 5 soatdan o'qitilsa, "matematika-fizika" yoki "matematika-ingliz tili" yo'nalishidagi sinfda haftasiga 10 soatdan o'tiladi. Ona tili va chet tili yo'nalishidagi sinflarda ushbu fanlar haftasiga mos ravishda 10 va 9 soatdan, qolgan sinflarda esa 5 va 4 soatdan o'qitiladi.

Shunday qilib, ushbu sinflarning o'quv rejasidan quyidagi fanlar chiqarib tashlanadi:

- o'zbek (davlat) tili (ta'lim tili o'zbek tili bo'lmagan maktablarda) va chet tili sifatida rus tili (ta'lim tili rus tili bo'lmagan maktablarda), geografiya, iqtisodiy bilim asoslari, huquqshunoslik — bu fanlar majburiy fanlar ro'yxatida ham, tanlov fanlar ro'yxatida ham tilga olinmagan;

- fizika va astronomiya, kimyo, biologiya — bu fanlar faqat tanlov fanlar ro'yxatida mavjud, ya'ni o'quvchilar o'zlari tanlamagan taqdirda, ularga mazkur fanlar o'qitilmaydi.

Buyruq loyihasida 11-sinfni tamomlaganlik to'g'risidagi shahodatnomaga 10–11-sinflarda o'rganilmagan fanlar bo'yicha baholar 9-sinfni tamomlaganlik to'g'risidagi shahodatnomadan ko'chirib o'tkazilishi qayd etilgan.